


“TASDIQLAYMAN”



**INNOVATIVE DEVELOPERS
MCHJ direktori**

 **N. Tuygunov**

“ ” 2026-yil

**“INNOVATIVE DEVELOPERS” MCHJ GA QARASHLI “INNOVATIVE
MEDICAL EDUCATION” MALAKA OSHIRISH MARKAZINING
TINGLOVCHILARNI O‘QISHGA QABUL QILISH TARTIBI
TO‘G‘RISIDA NIZOM**

“INNOVATIVE MEDICAL EDUCATION” MALAKA OSHIRISH MARKAZINING TINGLOVCHILARNI O‘QISHGA QABUL QILISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, “INNOVATIVE DEVELOPERS” MCHJning “INNOVATIVE MEDICAL EDUCATION” malaka oshirish kurslariga (keyingi o‘rinlarda IDEV deb yuritiladi) tinglovchilarni qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. IDEV ning masofaviy malaka oshirish kurslariga tibbiyot va farmatsevtikaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlari qabul qilinadi.

3. Ushbu Nizom malaka oshirish kursiga qabul qilish jarayonida IDEV va tinglovchi o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soladi va Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagogik kadrlarini masofaviy o‘qitish usuli orqali malaka oshirish kursidan o‘tishi amalga oshiriladi.

4. Masofaviy malaka oshirish kursi 288 soatdan iborat bo‘lib, 2 oy muddatda davom etadi. Bunda o‘qish soati bir kunda 6 soatni, bir haftada 36 soatni tashkil etib, ta’lim xizmatlari ta’lim standarti, o‘quv rejasi, shu jumladan, individual va dars jadvaliga muvofiq ko‘rsatiladi.

5. IDEVga qabul teng huquqlilik, yagona qabul qoidalari asosida amalga oshirilib, tinglovchilarni to‘lov-kontrakt asosidagi qabul qilinishi ta’minlanadi.

6. Masofaviy malaka oshirish kurslari o‘zbek tilida olib boriladi.

2-bob. Qabul komissiya faoliyatini tashkil etish

7. Tinglovchi — belgilangan tartibda IDEVga o‘qishga kirish uchun ro‘yxatdan o‘tgan talabgor;

8. Qabul komissiyasi — Tashkilot direktorining buyrug‘i bilan tasdiqlanadigan, belgilangan vazifalar bo‘yicha ta’lim yo‘nalishiga tinglovchilar hujjatlarini qabul qiluvchi, ta’lim jarayoni bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarida ishtirok etuvchi bo‘lim;

10. IDEVda o‘qishga qabul jarayonlarini tashkil etish bo‘yicha malakali mutaxassislardan iborat tarkibda qabul komissiyasi tuziladi. Qabul komissiyasi tarkibi belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

11. IDEV ta’sischilari bilan kelishgan holda qabul komissiyasi raisi tayinlanadi. Qabul komissiyasi va a’zolarining vazifalari belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

12. IDEVning malaka oshirishga mas’ul xodimi qabul komissiyasi mas’ul kotibi hisoblanadi.

3-bob. Ta'lim shakli va dasturlar

13. IDEV malaka oshirishdagi ta'lim dasturida ishdan ajralmagan holdagi masofaviy ta'lim shaklini taqdim etadi.

14. **Masofaviy ta'lim** – o'qituvchi va tinglovchi bir joyda bo'lmagan holda, internet va axborot texnologiyalari orqali bilim olish imkonini beruvchi zamonaviy ta'lim shakli. Bunda tinglovchi darsdan so'ng mustaqil ta'lim uchun tashkilot platformalaridagi har bir fan mavzularidan tartibga solingan videodarslar, nazorat testlari va vaziyatli masalalardan onlayn holatda foydalanishlari mumkin.

4-bob. Tinglovchilarni ro'yxatdan o'tkazish va qabul mezonlari

15. IDEVda qabul jarayonlari har yili 6 marotaba amalga oshiriladi.

16. IDEVning masofaviy malaka oshirish kurslariga quyidagilar tinglovchi sifatida ro'yxatdan o'tishi mumkin:

- tibbiyot va farmatsevtika sohasining barcha yo'nalishlari bo'yicha Oliy ta'lim muassasalarining rahbar kadrlari;

- tibbiyot va farmatsevtikaning barcha yo'nalishlari bo'yicha Oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari;

- tibbiyot va farmatsevtikaning barcha yo'nalishlari bo'yicha Oliy ta'lim muassasalarining faoliyat yuritmayotgan rahbar va pedagog kadrlari;

17. IDEVga qabul jarayonida tinglovchilarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish tashkilotning rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi. Bunda tinglovchilar veb-saytda yangi kursga e'lon berilgan muddatlarda ro'yxatdan o'tishi mumkin.

18. Kursga qabul qilingan tinglovchilar qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni elektron variantini taqdim etadi:

- Bakalavr diplomi;

- Klinik ordinatura (rezidentura) guvohnomasi;

- Pasport yoki ID karta;

- Mehnat faoliyati ma'lumotnomasi;

- Rasm 3x4 (2 ta).

19. Shundan so'ng IDEV qabul komissiyasi tomonidan hujjatlar ko'rib chiqiladi hamda ijrochi direktor tomonidan o'qishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqariladi.

20. MARKAZ o'quv yili boshlanish va tugash vaqti, ularning davom etish muddati MARKAZning o'quv rejalariga muvofiq belgilanadi.

5-bob. Malaka oshirish markaziga xorijiy fuqarolarni qabul qilish

21. Xorijiy fuqarolar IDEV tomonidan o'tkaziladigan suhbat natijasiga ko'ra to'lov-shartnoma asosida o'qishga qabul qilinadi.

22. Agar IDEV xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari yoki boshqalar bilan alohida kelishuvga ega bo'lsa, xorijiy talabalarni o'qishga qabul qilish o'sha kelishuv asosida amalga oshiriladi.

23. IDEVga qabul qilingan xorijiy fuqarolarni o'qitish ta'lim dasturlarida yoki kelishuvlarda nazarda tutilgan tillarda olib boriladi.

24. O'qishni muvaffaqiyatli tugatgan xorijiy fuqarolarga belgilangan namunadagi tegishli hujjat (diplom) beriladi.

6-bob. To'lov-kontrakt miqdori

25. Tinglovchi kerakli ma'lumot olganidan so'ng to'lovni bank orqali, tashkilot hisob raqamidan pul o'tkazish yo'li bilan yoki Payme, Click ilovalari orqali pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishi mumkin.

26. Mahalliy va xorijiy tinglovchilar uchun Markaz dasturlaridagi belgilangan to'lov kontrakt miqdori o'zaro farq qiladi.

27. Markaz kelgusi yillar uchun to'lov kontrakt miqdorini qayta ko'rib chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

28. O'qishni tugatgandan keyin talabalarga o'qishni muvaffaqiyatli tamomlagaligi to'g'risidagi diplom taqdim etiladi.

7-bob. O'qishni qayta tiklash

29. Tinglovchi Markazda muayyan sabablarga ko'ra o'qishini davom ettira olmagan bo'lsa, ularni o'qishga qayta tiklash yoki tiklamaslik masalasi Markaz qabul komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi.

8-bob. Yakunlovchi qoida

30. Ushbu nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.